O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori _____ X.B.Yunusov

2025-yil “29” 08

Ro‘yxatga olindi: №BD-60410100-1.06

2025-yil “29” 08

IQTISODIYOT NAZARIYASI 1,2

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishlari:	60410100 – Iqtisodiyot
	60410200 – Buxgalteriya hisobi
	60410800 – Menejment

Samarqand-2025

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
IQN11210	2025-2026	1-2	10
Fan modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek/rus		4

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Iqtisodiyot nazariyasi 1,2	150	150	300

2. I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarda iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillar, iqtisodiyot nazariyasi asoslari, iqtisodiy kategoriyalar, iqtisodiy jarayonlarning amal qilish xususiyatlari, ishlab chiqarish omillari, iqtisodiyot subyektlari, zamonaviy bozor iqtisodiyotining ishlashi va rivojlanishining nazariy asoslari, milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanish qonuniyatlari to‘g‘risida nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – iqtisodiyot qonun va qonuniyatlarini, bozor subyektlarining har hil bozor tuzulmalaridagi harakat faoliyatini, ularning faoliyatga ta’sir qiluvchi omillatrini, iste’molchining bozordagi harakatini, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish kabi masalalarni, bozordagi talab va taklif to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar asosida bozorni tahlil qiloish va hulosalar chiqarishni, davlatning bozor iqtisodiyotiga aralashuvi oqibatlarni tahlil qilish asosida hulosalar chiqarishni o‘rgatish, talabalarning amaliy faoliyatida olgan bilim, ko‘nikmalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay olishiga erishish.

II. Asosiy nazariy qism (Ma’ruza mashg‘ulotlar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining predmeti va uslublari

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti to‘g‘risida turlicha yondashuvlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti. Iqtisodiy hodisa va jarayonlar. Moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari. Hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurining shakllanishida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini tahlil qilish va bilishda iqtisodiyot nazariyasi fanining roli. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. Iqtisodiy qonunlarning turkumlanishi.

Iqtisodiy qonunlar va jarayonlarni ilmiy bilishning dialektik qoidalari. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o‘rganish usullari: ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya,

Iqtisodiyot va menejment kafedrasidagi "Iqtisodiyot nazariyasi 1,2" fanining o'quv dasturiga Top-300 OTM ta'lim dasturlari asosida quyidagi qo'shimchalar kiritildi

№	O'quv dasturidagi mavzu nomi	TOP-300 ta'lim dasturi bo'yicha Xorijiy oliy ta'lim tashkiloti nomi	Top-300 ta'lim dasturi asosida kiritilgan qo'shimchalar
1	25-mavzu. Jahon xo'jaligi va uning evolyusiyasi	Мамаева Л.Н. Экономическая теория: учебник. Ростов н/Д: Феникс, 2015. -365 с.	Jahon xo'jaligining tashkil topishi, bosqichlari va asosiy belgilari. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari.
2	28-mavzu. Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari	Лобачева, Е. Н. Основы экономической теории: учебник для СПО / 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2017.	Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va shakllari. Xalqaro savdoning mazmuni. Xalqaro savdoning xususiyatlari. Eksport va import. To'lov balansi va uning tarkibi. Tashqi savdo balansi.

tahlil va sintez, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, ikki tomonlama yondashuv, empirik usul va farazlardan foydalanish.

2-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari

Ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli xil yondashuvlar: tarixiy-formatsion, madaniylashish (sivilizatsiya) darajasi, texnika va texnologik darajasi, iqtisodiy tizimlar o'zgarishi jihatidan yondashuv. Jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari. Ishlab chiqarish munosabatlari.

Ishlab chiqarish usuli. Sivilizatsiyalarning almashuvi nazariyasi. Ishlab chiqarishning texnologik usuli. Oddiy kooperatsiya, manufaktura va yirik mashinalashgan ishlab chiqarish. Industrlashishgacha bo'lgan jamiyat, industrlashgan jamiyat, yuqori industrlashgan (axborotlashgan) jamiyat.

Iqtisodiy tizim tushunchasi va tizim modellari: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti.

3-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni: egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy jihatlari. Mulk shakllarining tasniflanishi. Davlat mulki, jamoa mulki, shaxsiy mulk, xususiy mulk va aralash mulk.

Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilikning o'rni. Mulkchilik shakllarini o'zgartirish usullari: milliylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari. O'zbekiston Respublikasida mulkchilikni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

4-mavzu. Tovar-pul munosabatlari - bozor iqtisodiyotining asosidir

Tovar va uning xususiyatlari. Tovarning nafliligi va ayirboshlanish qobiliyati (qiymati). Tovar qiymatining miqdori. Individual va ijtimoiy zaruriy naflilik. Mehnatning ikki yoqlama tavsifi: aniq mehnat va abstrakt mehnat. Mehnat unumdorligi va intensivligining tovar qiymati miqdoriga ta'siri.

Pulning kelib chiqishi va mazmuni. Pulning ratsionalistik va evolyutsion konsepsiyalari. Qiymat shakllari. Pul to'g'risidagi metallistik, nominalistik va miqdoriy nazariyalar. Pulning asosiy vazifalari: qiymat o'lchovi, muomala vositasi, jamg'arish vositasi, to'lov vositasi. Hozirgi zamon pulining tabiati va mazmuni. O'zbekistonda milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilishi bosqichlari va ularning ahamiyati. Milliy valyuta barqarorligini oshirish vazifalarini hal etish borasidagi dasturlar.

5-mavzu. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o'tish - barcha mamlakatlarga xos umumiy jarayon. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari va

shakllari. Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning xususiyatlari. O‘tish davrida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari.

O‘tish davri iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning milliy modellari. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasi va strategiyasi. Iqtisodiy islohotlarning bosqichlari va ularning vazifalari. O‘zbekistonda islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari.

6-mavzu. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri va uning O‘zbekistondagi xususiyatlari

Tarixdan bizga ma’lumki, bir-biridan keskin farq qiladigan bir tizimdan ikkinchisiga o‘tish jarayoni ma’lum o‘tish davrini taqozo qiladi. Shuningdek, markazlashgan ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan voz kechib, bozor munosabatlarini shakllantirishda ham maxsus o‘tish davri zarur bo‘lib, bu davrning mazmuni va asosiy belgilarini o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu bobda o‘tish davri nazariyasi, xususan bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llari bayon qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning tamoyillari va xususiyatlari, respublikada bozor islohotlarini amalga oshirishning mazmuni, maqsadi va asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, bozor munosabatlariga o‘tish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarkibiy o‘zgartirishi, keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiyalashni amalga oshirish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish kabi strategik vazifalarni amalga oshirish yo‘llari tahlil qilinadi.

7-mavzu. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati

“Bozor” va “bozor iqtisodiyoti” tushunchalarining o‘zaro farqlanishi. Bozorning mazmuni va asosiy belgilari. Bozor mexanizmi. Bozorning vazifalari. Bozorning turkumlanishi. Resurslar, mahsulotlar va daromadlarning doiraviy aylanish diagrammasi. Bozor infratuzilmasi. Bozor infratuzilmasi muassasalarini guruhlash yo‘nalishlari. Bozor infratuzilmasi tarkibi.

Talab tushunchasi. Talab miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar: iste'molchi didi, bozordagi iste'molchilar soni, ularning pul daromadi, o‘rnini bosuvchi tovarlar narxi, kelajakda narx va daromadlarning o‘zgarishi ehtimoli. Engel egri chizig‘i.

Taklif tushunchasi. Taklif miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar: resurslar narxi, ishlab chiqarish texnologiyasi, soliqlar va subsidiyalar, boshqa tovarlar narxi, narx o‘zgarishining kutilishi, ishlab chiqaruvchilar soni. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning xususiyatlari. Talab va taklif miqdorlarining mos kelishi. Bozor muvozanati. Xususiy va umumiy muvozanatlik. Talab va taklif egiluvchanligi va ularni belgilab beruvchi omillar.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot va menejment kafedrasi dotsenti I.Salamov, i.f.n. va kafedra mudiri v.b. N.Rajabovlar tomonidan 60410100-Iqtisodiyot, 60410200-Buxgalteriya hisobi, 60410800-Menejment ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun “Iqtisodiyot nazariyasi 1, 2” fanidan tayyorlangan o‘quv dasturiga

TAQRIZ

Iqtisodiy jarayonlarning jadal rivojlanayotgan sharoitda talabalarga iqtisodiy munosabatlarini tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi asosiy yo‘nalishlariga mos nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

“Iqtisodiyot nazariyasi” bo‘yicha o‘quv dasturi bakalavriatning 60410100-Iqtisodiyot, 60410200-Buxgalteriya hisobi, 60410800-Menejment ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quv rejada majburiy fanlar blokidan o‘rin olgan, ushbu fanni o‘zlashtirish uchun jami 300 soat ajratilgan.

O‘quv dasturi iqtisodiy tizimlar, mulk va uni davlat tasarrufidan chiqarish, talab va taklif, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri va uning O‘zbekistondagi xususiyatlari, biznes va tadbirkorlik,ishlab chiqarish xarajatlari va foyda, sof raqobat, oligopoliya, monopolistik raqobat, qishloq xo‘jaligi: ijara haqi va renta,yalpi ichki mahsulot, milliy daromad va narxlar darajasi, iste'mol sarflari va jamg‘arma, iqtisodiy o‘sish, makroiqtisodiy nisbatlar va muvozanatlilik, makroiqtisodiy beqarorlik: inqiroz, ishsizlik va inflyatsiya, ishchi kuchi bozori,ishchi kuchi va uning bandligi, fiskal siyosat, davlat byudjeti va uning taqchilligi, pul muomalasi, kredit va banklar, monetar siyosat va foiz stavkasi,iqtisodiyotda davlatning roli, jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar,xalqaro savdo,valyuta kursi, to‘lov balansi va uning taqchilligi kabi dolzarb mavzularini o‘z ichiga olgan.

Mazkur fan dasturi “Iqtisodiyot nazariyasi” fani bo‘yicha talabalar egallashi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni to‘la qamrab olgan.

Umuman olganda mazkur o‘quv dasturi qo‘yilgan talablarga mos holda tayyorlangan bo‘lib, shu dastur asosida 60410100-Iqtisodiyot, 60410200-Buxgalteriya hisobi, 60410800-Menejment ta’lim yo‘nalishlari talabalarini o‘qitishda foydalanish uchun tavsiva etaman.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti “Iqtisodiyot va biznes” kafedrasi, i.f.b.f.d. (PhD) **B.Muratov**

SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI
TASDIQLAYMAN
(imzo)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI
KODIMLARI BO‘LIMI

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot va menejment kafedrasi dotsenti I.Salamov, i.f.n. va kafedra mudiri v.b. N.Rajabovlar tomonidan 60410100-Iqtisodiyot, 60410200-Buxgalteriya hisobi, 60410800-Menejment ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun "Iqtisodiyot nazariyasi 1, 2" fanidan tayyorlangan o'quv dasturiga

TAQRIZ

Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Iqtisodiyot nazariyasi" fani muhim ahamiyat kasb etadi

"Iqtisodiyot nazariyasi" fani o'quv rejada majburiy fanlar blokidan o'rin olgan bo'lib, ushbu fanni o'zlashtirish uchun jami 300 soat, shundan 70 soat ma'ruza, 80 soat seminar va 150 soat mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

"Iqtisodiyot nazariyasi " fani talabalarga iqtisodiy jarayonlar, voqea-hodisalar obyektiv tahlil etish, iqtisodiy jarayonlarni bilishga, tafakkur qilishga va mustaqil ravishda tahlil etishga o'rgatishdan iborat.

"Iqtisodiyot nazariyasi" o'quv dasturini mazmuni shuni ko'rsatadiki, fan dasturini tayyorlashda fanni o'rganish ketma-ketligiga rioya qilingan holda tartib bilan tuzilib, shu fanni o'rganish ketma-ketligiga mos keladi.

"Iqtisodiyot nazariyasi" o'quv dasturi o'z ichiga 25 ta ma'ruza va 30 ta seminar darslarga mo'ljallangan mavzularni qamrab olib, talabalarga nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, iqtisodiyot nazariyalari va iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini, iqtisodiy tizimi va uning o'ziga xos jihatlarini nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.

Umuman olganda, mualliflar tomonidan tayyorlangan "Iqtisodiyot nazariyasi" o'quv dasturi qo'yilgan talablarga javob beradi, talabalarda ushbu fan bo'yicha yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun mos holda tuzilgan, undan 60410100-Iqtisodiyot, 60410200-Buxgalteriya hisobi, 60410800-Menejment ta'lim yo'nalishlari talabalarini o'qitishda fan dasturi sifatida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor K.J.Mirzaev

XODIMLAR BO'LIMI

BIZONI TASDIQLAYMAN
Samarqand
KADRLAR BO'LIMI BOSHLIG'I

8-mavzu. Iqtisodiyotda raqobat va monopoliya

Raqobatning mohiyati va obyektiv asoslari. Raqobat mazmuniga turli tomondan yondashuv. Raqobatning vazifalari. Raqobatning turlari: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat. Raqobat shakllari: sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya va sof monopoliya. Raqobatlashish usullari: narx vositasidagi va narxsiz raqobat, g'irrom va qalol raqobat. Demping narxlarni qo'llash. Raqobat kurashining zamonaviy shakllari: mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni yangilash, xizmat sifati, reklama, servis,marketing va h.k.

9- mavzu. Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari

Narxning mazmuni va uning obyektiv asoslari. Narx to'g'risidagi turli nazariyalar. Tovardagi ikki xil xususiyatlarning narxlardagi ifodasi. Narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning vazifalari.

Narx turlari: ulgurji va chakana narxlar. Nufuzli, demping va dotatsiyalangan narxlar. Shartnomaviy, erkin va tartibga solinuvchi narxlar. Narx diapazoni. Narx pariteti. Narx tashkil topishining bozor mexanizmi. Mukammal raqobat sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari. O'zbekistonda raqobat muhitini shakllantirish borasidagi chora-tadbirlar. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

10-mavzu. Tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlik kapitali

Tadbirkorlik faoliyatining mazmuni. Tadbirkorlik faoliyati nazariyasining rivojlanish bosqichlari. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va rivojlanish shart-sharoitlari. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari: davlat, jamoa, xususiy, aralash va boshqa shakllari. Kooperativ, xususiy va yakka tartibdagi tadbirkorlik. Korxona tadbirkorlik faoliyatining asosiy va boshlang'ich bo'g'ini. Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlik kapitali. Marketing, uning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Menejment - korxonalarni boshqarish tizimi sifatida. Menejmentning asosiy maqsadi va vazifalari.

Tadbirkorlik kapitalining mohiyati. Tadbirkorlik kapitali va uning harakatidagi ikki tomonlama xususiyatning namoyon bo'lishi. Tadbirkorlik kapitalining funksional shakllari: pul, unumli kapital va tovar. Kapitalning harakat bosqichlari. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital, ularning farqli belgilari. Kapitalning aylanish vaqti va tezligi. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish: jismoniy, ma'naviy va iqtisodiy eskirishi va qayta tiklanishi.

11-mavzu. Korxona (firma) xarajatlari va foydasi

Xarajat tushunchasi, xarajatlarini tadqiq etishdagi yondashuvlar. Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari. Korxona ishlab chiqarish xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlarining mazmuni, tarkibi va turlari. Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari. Ichki va tashqi xarajatlar. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar.

O‘rtacha va umumiy xarajatlar. Xarajatlarni minimallashtirish qoidasi. Qisqa va uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish xarajatlari. Tannarx.

Daromadlarning mohiyati, shakllanishi va turlari. Xarajatlar va daromadlar egri chizig‘i. Zarar ko‘rmaslik nuqtasi.

Korxona foydasi. Foydaning turlari. Foyda miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar. Mahsulot qiymati tarkibi. Yalpi foydaning taqsimlanishi. Foyda normasi va massasi hamda ularni hisoblash. Foyda normasiga ta'sir ko‘rsatuvchi omillar.

12- mavzu. Ish haqi va mehnat munosabatlari

“Ishlab chiqarishning uch omili”, “qo‘shilgan qiymat” nazariyalar: afzallik va kamchiliklari. Yaratilgan mahsulotni taqsimlashning asosiy yo‘nalishlari.

Ish haqi to‘g‘risida turlicha nazariyalar. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Nominal va real ish haqi. Real ish haqining darajasi va o‘zgarishiga ta'sir ko‘rsatuvchi omillar. Ish haqining tabaqalanishi. Ish haqini tashkil qilish shakllari va tizimlari. Tarif tizimi. Minimal ish haqi. Mehnat munosabatlari. Ishchi kuchi talabi va taklifini o‘zgartirish. Kasb bo‘yicha malaka darajasini lisenziyalash. Jamoa shartnomalari va ijtimoiy sug‘urta tizimi. Ochiq va yopiq turdagi kasaba uyushmalarining ish haqi darajasiga ta'siri. Davlatning ish haqi siyosati. Respublikada mehnatni rag‘batlantirish, ish haqini ko‘paytirish va aholi daromadlari o‘sishini ta'minlashga qaratilgan siyosatni amalga oshirishda qo‘lga kiritilgan natijalar.

13-mavzu. Iste’molchi xulqi nazariyasi: naflilik va uni maksimallashtirish qoidasi

Talab va taklif miqdorlarining mos kelishi. Qisqa va uzoq davrlarda talabning o‘zgarishi. Bozor muvozanati. Iste'molchi hatti-harakati nazariyasi. Iste'molchining afzal ko‘rishi. Naflilik funksiyasi. So‘nggi qo‘shilgan naflilik. Naflilikni maksimallashtirish qoidasi. Iste'molchining muvozanatli holati. Befarqlik egri chizig‘i. Byudjet chizig‘i. Narx va daromadlar o‘zgarishining iste'molchi tanloviga ta'siri.

Naflilik, yalpi naflilik va keyingi naflilik tushunchalari. Iste’molchining afzal ko‘rishi qoidasi. So‘nggi qo‘shilgan naflilikning pasayib borish qonuni. Yalpi (umumiy) naflilik va so‘nggi qo‘shilgan naflilik o‘rtasidagi farq. Iste’molchi tanlovidagi befarqlik holati. Befarqlik egri chizig‘i va naflilik. Iste’molchi byudjeti va uning cheklanganligi. Narx o‘zgarishining byudjet chizig‘iga ta'siri. Iste’molchi tanlovini oqilona ravishda amalga oshirishda qo‘yiladigan shartlar. Narx o‘zgarishining daromad va almashtirish samarasi.

14- mavzu.Agrar munosabatlar va agrobiznes

Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning amal qilishi iqtisodiyotning barcha sohalari, tarmoqlari va bo‘g‘inlari uchun umumiy bo‘lsada, lekin ayrim olingan

	N.Rajabov – SamDVMCHBU “Iqtisodiyot va menejment ” kafedrasi mudiri v.b.
9.	**Taqrizchilar:** **K.J.Mirzayev** - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor. **A.Muratov** - Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti “Iqtisodiyot va buxgalteroya hisobi” kafedrasi i.f.b.f.d. PhD

- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish; yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.

6. Asosiy adabiyotlar

1.Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - Toshkent: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2020.

2.Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - Toshkent: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2017.

3.O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2014.

4.Jo‘rayev T.T., Hamdamov M.A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - Toshkent: “Fan va texnologiyalar nashriyot – matbaa yui”, 2024.

5.Мамаева Л.Н. Экономическая теория: учебник. Ростов н/Д: Феникс, 2015. - 365 с.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024 yil.

2.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022 yil.

3.G‘afurov U.V., Xamidova Z.A. Iqtisodiyot nazariyasida munozaralar. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Innovatsion rivojlanish” nashriyot matbaa uyi, 2021.

4.Mamaraximov B.E., Mamatov M.A. Iqtisodiy siyosatga kirish. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021.

5.Лобачева, Е. Н. Основы экономической теории: учебник для СПО / 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2017.

Axborot manbaalari

1.www.gov.uz .

2.www.lex.uz

3.www.mf.uz

7. Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi “840000-Veterinariya” ta’lim sohasi bo‘yicha Kengashning 2025-yil “28” 08 dagi 3 sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

8. Fan/modul uchun mas’ullar:

I.Salamov – SamDVMCHBU “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi

sohalarda, bu qonun va kategoriyalar ulardagi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga bog‘liq holda o‘ziga xos xususiyatlar ham kasb etadi. Ayniqsa, bu o‘ziga xos xususiyat agrar sohada yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki bu yerda takror ishlab chiqarish ko‘p jihatdan tirik organizm (hayvon, o‘simlik va boshqalar) bilan ham bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy qonunlar tabiiy qonunlar bilan chatishib ketadi.

Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi xususiyatlari. Yerning resurs sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari. Yerning tabiiy va iqtisodiy unumdorligi. Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlari. Yer rentasi mazmuniga bo‘lgan turli xil yondashuvlar va yer rentasining tarixiy shakllari. Yer rentasining mazmuni va turlari: differensial renta, absolyut renta, monopol renta, undirma sanoat va qurilish uchastkalaridan olinadigan renta. Ijara haqi.

Yerning narxi va uni belgilovchi omillar. Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majmuasi va uning sohalari. Agrobiznes va uning turlari. O‘zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari. Xo‘jalik yuritishning samarali shakllarini rivojlantirish. Qishloq joylarida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.

15-mavzu. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o‘lchamlari. Yalpi ichki mahsulot va uning harakat shakllari

Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi. Makroiqtisodiyot. Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va uning harakat shakllari. Yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot. Nominal va real yalpi ichki mahsulot. Narx indeksi. Yalpi ichki mahsulotning tarkibiy tuzilishi. Sof milliy mahsulot, milliy daromad va shaxsiy daromad. Xufyona iqtisodiyot, uning o‘lchamlari va namoyon bo‘lish shakllari. Milliy mahsulotni ko‘paytirish omillari va yo‘llari. Milliy hisoblar tizimi. YalMni hisoblashga qo‘shilgan qiymatlar bo‘yicha yondashuv. YalMni hisoblashga sarf-xarajatlar bo‘yicha yondashuv. Uy xo‘jaliklarining iste’mol sarflari. Investitsion sarflar. Davlat sarflari.

16-mavzu.Yalpi talab va yalpi taklif

Yalpi talab tushunchasi va uning hajmiga ta’sir qiluvchi omillar Yalpi taklif tushunchasi. Yalpi taklif tarkibi va unga ta’sir qiluvchi omillar.Yalpi talab va yalpi taklif o’rtasidagi muvozanat va uning o’zgarishi. Yalpi talab miqdorining tovarlar turlari, miqdori, sifati hamda narxiga bog’liqligi. Narx darajasi oshishining yalpi talabga ta’siri. Yalpi talab va yalpi taklif o’rtasidagi muvozanat. Hozir sharoitda O’zbekistonda yalpi taklifning o’zgarishi.

17- mavzu.Iste’mol, jamg‘arma va investitsiyalar

Iste’molning mazmuni va uning turlari. Iste’mol fondi va iste'mol sarflari. Jamg‘arma va uning maqsadi. Iste’mol va jamg‘arma darajasini belgilovchi omillar.

Iste'mol va jamg'arma hajmiga daromaddan tashqari ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va keyingi qo'shilgan moyillik va ularni aniqlash.

Jamg'arishning mazmuni va uning manbalari. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadidagi jamg'arish. Jamg'arish normasi. Nominal va real jamg'arish. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning klassik va keynscha modellari, ular o'rtasidagi farqlar.

18-mavzu. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy o'sish va milliy boylik

Iqtisodiy o'sishning mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish sur'ati. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari. Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Iqtisodiy o'sishning omillari. Iqtisodiy o'sishni belgilovchi xususiy ko'rsatkichlar. Keyingi qo'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdorligi ko'rsatkichlari. Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar.

Iqtisodiy taraqqiyotning mazmuni va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish nazariyalari, konsepsiya va modellari. Iqtisodiy o'sishning keynscha va neokeynscha modellari. Kobb-Duglas modelining mazmuni.

R.Xarrod va Y.Domar modellari. V.Leontevning "xarajatlar-natijalar" modeli. "Nol darajadagi iqtisodiy o'sish" konsepsiyasi.

19-mavzu. Iqtisodiyotning siklliligi va makroiqtisodiy beqarorlik

Iqtisodiy muvozanat tushunchasi. Umumiqtisodiy va xususiy muvozanatlik. Turg'un va muttasil rivojlanib boruvchi muvozanatlik. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlash usullari. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari. O'zbekistonda iqtisodiyotning tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiyalash, modernizatsiyalash asosida mutanosibli rivojlantirilishi. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirish natijalari. Iqtisodiyot ichki tuzilishidagi o'zgarishlar.

Iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar va ularning namoyon bo'lish shakllari. Iqtisodiyotning siklli rivojlanishi. Iqtisodiy sikl fazalari. Siklik tebranishlar. Iqtisodiy sikl nazariyalari. Eksternal va internal nazariyalar. Iqtisodiy inqirozning mazmuni, sabablari va turlari.

20- mavzu. Ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik

Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchi va uning bandligi. Ishchi kuchining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Ishchi kuchini takror hosil qilish. Nufus qonuni. Aholining tabiiy o'sishi. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning shakllari.

Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va taklif hamda uni aniqlovchi omillar. Fillips egri chizig'i. Ishchi kuchining ayrim sohalardan bo'shashi va uni qayta taqsimlashning bozor mexanizmi. Ishchi kuchi bandligi to'g'risida turli xil nazariyalar. Neoklassik, keynscha, monetaristik, institutsional-sotsiologik maktab konsepsiyalari. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasi va uni aniqlash.

14.Korxona (firma) xarajatlari va foydasi
15.Ish haqi va mehnat munosabatlari
16.Agrar munosabatlar va agrobiznes
17.Yalpi talab va yalpi taklif
18.Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar
19.Iqtisodiy taraqqiyot
20.Iqtisodiy o'sish va milliy boylik
21.Iqtisodiyotning siklliligi va makroiqtisodiy beqarorlik
22.Milliy iqtisodiyotning muvozanatli va mutanosibli rivojlanishi
23.Moliya tizimi
24.Moliyaviy siyosat
25.Pul-kredit tizimi
26.Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli
27.Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli
28. Bozor infratuzilmasi va uning elementlari
29.Aholi turmush darajasi va daromadlari
30.Jahon xo'jaligi va uning evolyutsiyasi
31.Xalqaro integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi
32.Jahon bozori va kreptovalyuta
33.Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari.
34.Qiymat nazariyalari: mehnat nazariyasi va marjinalistik nazariya .
35.Pulning kelib chiqishi va mohiyati, Pulning funktsiyalari va tizimlari.
36.Rentabellik va foyda kategoriyalari.
37.Ishlab chiqarish omillari va ularning o'zaro bogliqligi
38.Yalpi ichki mahsulot va uning hisoblanishi ,yalpi milliy mahsulot
39.Innovatsiyalar va iqtisodiy taraqqiyot
40. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- iqtisodiyot nazariyasi asoslari, iqtisodiy kategoriyalar, iqtisodiy jarayonlarning amal qilish xususiyatlari, zamonaviy bozor iqtisodiyoti rivojlanishining nazariy asoslari, milliy iqtisodiyotning amal qilish va rivojlanish qonuniyatlari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish, iqtisodiy muammolarni hal etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar to'plash va ulardan foydalana olish bo'yicha ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;

10.Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari
11.Tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlik kapitali
12.Ish haqi va mehnat munosabatlari.
13.Agrar munosabatlar va agrobiznes
14.Qishloq xo'jaligi: ijara va renta
15.Yalpi talab va taklif
16.Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar
17.Iqtisodiy o'sish va milliy boylik
18.Moliya tizimi va moliyaviy siyosat
19.Budjet daromadlari va xarajatlarining iqtisodiy mazmuni
20.Pul-kredit tizimi
21.Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli
22.Markaziy bank va uning funksiyalari
23.Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli
24.Pul-kredit siyosati. Monetar siyosat. Byudjet siyosati.
25.Jahon xo'jaligi va uning evolyutsiyasi
26.Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi
27.Jahon bozori. Jahon savdo tashkiloti.
28.Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari
29.Davlatning iqtisodiy siyosati
30.Iqtisodiy siyosatning asoslari. Iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1.Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va o'rganish usullari
2.Iqtisodiyot nazariyasining tarixi va rivojlanish bosqichlari
3.Ishlab chiqarish omillari va ularning o'zaro bog'liqligi
4.Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari
5.Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari
6.Tovar-pul munosabatlari - bozor iqtisodiyotining asosidir
7.Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi
8.Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari
9.Talab va taklif nazariyasi
10.Bozor muvozanati
11.Raqobat va monopoliya
12.Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari
13.Tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlik kapitali

21- mavzu. Moliya tizimi va moliyaviy siyosat

Moliyaning mazmuni va ahamiyati. Moliyaning vazifalari. Moliya tizimi va uning bo'g'inlari. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ifodalovchi ta'rif.

Moliya va moliyaviy munosabatlarning xarakterli belgilari. Moliyaviy siyosatning mazmuni va prinsiplari.Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo'nalishlari). Soliqlar va uning vazifalari. Soliqlarning turkumlanishi. Soliq yuki va uning darajasini aniqlash. Soliq yukining taqsimlanishi.

22-mavzu. Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli

Pul muomalasi. Pul tizimi va uning tarkibiy qismlari. Pul muomalasi qonunlari. Pul agregatlari. Pul bozorida talab va taklif. Pul taklifi va uning multiplikatori.

Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari. Inflyatsiya darajasi va sur'ati. Talab va taklif inflyatsiyasi. Inflyatsiya turlari: o'rmalab boruvchi, jadal va giperinflyatsiya.Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati.

Kreditning mohiyati, vazifalari va turlari. Foiz stavkasi va uning darajasini aniqlovchi omillar. Kredit-pul tizimini davlat tomonidan tartibga solish.

Banklarning iqtisodiy mazmuni. Banklarning turlari va ular faoliyatining o`ziga xos xususiyatlari. Bank tizimi va uning elementlari. Bank tizimi. Markaziy bank va uning vazifalari. Tijorat banklarning mohiyati, funktsiyalari va ahamiyati. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari. Tijorat banklari va ularning vazifalari. Bank operatsiyalari va bank foydasining hosil bo'lishi. O`zbekiston Respublikasining bank tizimi va uning shakllanish bosqichlari.Monetar siyosatning asosiy maqsadi .O'zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash siyosatining amalga oshirilishi.

23-mavzu. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli

Davlat byudjeti va uning moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi. Davlat budjeti orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi.

Budjet daromadlari va xarajatlarining iqtisodiy mazmuni va manbalari.Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi hamda ularning egri chizig'i. Budjetning iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari .Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari, ularning iqtisodiyotga ta'siri. Davlat qarzlari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy modellari. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasi va strategiyasi. Iqtisodiy islohotlarning bosqichlari va ularning vazifalari. O'zbekistonda islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlari.

24- mavzu. Aholi turmush darajasi va daromadlari

Aholi turmush darajasi juda keng va serqirra iqtisodiy tushunchadir. Shuning uchun bu tushunchaga iqtisodiy adabiyotlarda turli xil ta'riflar berilgan. Biz ularni umumlashtirib uni quyidagicha ta'riflaymiz. Aholi turmush darajasi – aholining hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda ular ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasidir.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish – bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi.

25-mavzu. Jahon xo'jaligi va uning evolyusiyasi

Jahon xo'jaligining tashkil topishi, bosqichlari va asosiy belgilari. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va shakllari. Xalqaro savdoning mazmuni. Xalqaro savdoning xususiyatlari. Eksport va import. To'lov balansi va uning tarkibi. Tashqi savdo balansi.

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Milliy va xalqaro valyuta tizimi. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari: oltin standart, oltin-devizli va suzib yuruvchi valyuta tizimi. Valyuta kursi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi. Xalqaro valyuta fondi. Yevropa valyuta tizimi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti. Yevropa tiklanish va taraqqiyoti banki. Islom banki. Osiyo taraqqyot banki.

26-mavzu. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va o'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini obyektiv tavsifdagi bir qator omillar taqozo qiladiki, ularning ichida xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi va globallashuvi; xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi; umumjahon fantexnika revolyusiyasi; milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi kabilar asosiy o'rinni egallaydi.

Turli mamlakatlardagi integratsiyaning turli elementlari bir xilda rivojlanmaydi. Shunga ko'ra, integratsiyaning qat'iy (bir tomonlama nafli) integratsiya, tasodifiy integratsiya, moslashuvchan (ikki tomonlama nafli) integratsiya kabi turlari farqlanadi.

O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi ko'p darajali tizim sifatida amal qilib, uni quyidagi beshta darajaga ajratish mumkin: global; transkontinental; mintaqalararo; mintaqaviy; mahalliy. Har bir darajadagi integratsion aloqalarning o'ziga xos vazifalari mavjud.

27-mavzu. Davlatning iqtisodiy siyosati

Iqtisodiy siyosat tushunchasi. Iqtisodiy siyosatning nazariy asoslarini shakllantirish. Iqtisodiy siyosatning tarkibiy jihatlari. Iqtisodiy siyosatga nazariy qarashlar, iqtisodiy tushunchalar. Siyosiy iqtisod iqtisodiy siyosatning asosi sifatida. Iqtisodiy siyosatning tipologiyasi.

Iqtisodiy siyosatning asoslari. Iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlari. Iqtisodiy siyosatning strategik maqsadi. Iqtisodiy siyosatning taktik maqsadi. Davlatning iqtisodiy strategiyasi. Davlatning iqtisodiy strategiyasining muhim turlari. Davlat iqtisodiy siyosatining prinsiplari. Davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish mexanizmi: tashkiliy-boshqaruv, me'yoriy-huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik.

28-mavzu. Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari

O'zbekistonning Xalqaro valyuta fondi va jahon banki bilan hamkorligi tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishdagi navbatdagi yo'nalishdir. Bu yo'nalishda XVF bilan tizimli qayta qurilishlarni mablag' bilan ta'minlash, tizimli va makroiqtisodiy siyosat sohasidagi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari ma'qullandi. Jahon bank tashkilotlari – Xalqaro ta'mirlash va rivojlanish banki (XTRB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Investitsiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA) bilan hamkorlik O'zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, XRRB yo'li bilan O'zbekistonga paxta etishtirish usullarini zamonaviylashtirib, uning jahon bozoriga chiqishiga ko'maklashish va unumdorlikni oshirish uchun asos yaratish maqsadida 66 mln. dollar, institutsional islohotlarni davom ettirish uchun 120 mln. dollar mablag' ajratildi. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) ham O'zbekistonda bir qator loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda.

III. Seminar darslari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar darslari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1.Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti
2.Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash
3.Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish
4.Pul va uning funksiyalari.
5.Tovar-pul munosabatlari - bozor iqtisodiyotining asosidir
6.Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi
7.Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati
8.Raqobat va monopoliya
9.Inflyatsiya va uning turlari